

TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR 11-MAKTAB MISOLIDA

Djuraboyeva Ravshanxon To'xtasinovna

Andijon shahar 11-umumta'lim maktabi direktori

Annotatsiya:

Maqolada O`zbekiston Respublikasining 2022 yil 21 iyundagi "Pedagogik ta'lism sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lism muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida" gi qonuni mohiyati Andijon shahar 11-umumta'lim maktabi misolida ko`rib chiqilgan va qonunning qisqa davr ichidagi amaliyoti tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lism olish huquqi, "Ta'lism to`g`risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, pedagogik ko`nikma, zamonaviy ta'lism dasturi.

O`zbekiston Respublikasida ta'lism tizimi davlat tomonidan huquqiy tartibga solingan va davlat nazoratidadir. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida bilim olish huquqi va maktab faoliyati davlatning bosh qonuni bilan huquqiy asoslangan. Ya`ni Konstitutsiyasining 41-moddasida " Har kim bilish olish huquqiga ega. Bepul umumiylar ta'lism olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir". Mamlakatimizda davlat o`z xalqiga bepul ta'lismni har qanday sharoitda kafolatlab beradi. Ta'lism tizimiga oid qonunchilikka nazar solsak, mustaqillikdan keyin, 1997-yilda "Kadrlar tayyorlash milliy dastur"ining qabul qilinishi yangi ta'lism tizimining huquqiy asoslarini yaratishni taqozo etdi. 1997 yil 29 avgustda O`zbekiston Respublikasining "Ta'lism to`g`risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun ham ta'lismni rivojlantirishga asos bo`lib hizmat qildi. Mamlakatning milliy intellektual salohiyatini rivojlantiradigan ta'lism va tarbiya jarayoni yuqoridagi qonuniy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Vaqt o'tishi bilan jadal rivojlanayotgan jamiyatda qator islohotlar amalga oshirildi. Rivojlanayotgan jamiyat, axborot komunikatsiyalari, ilm-fan taraqiyoti, dunyo standarti va xorij tajribasi bugungi kunda ta'lism tizimini tubdan isloh qilish va yangi qonun, konsepsiyalarni qabul qilish zarurligini yaqqol namoyon qildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'lism tizimini isloh qilish bo'yicha qator dasturlar ishlab chiqildi.

Jumladan, 2022 yil 21 iyundagi "Pedagogik ta'lism sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lism muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining №PQ-289 son qaroriga muvofiq pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lism muassasalari kunduzgi ta'lism shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta'lism muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiylar ta'lism muassasalarida amaliyot o'tash tartibi joriy etildi. Mazkur qarorga asosan, Andijon shahar 11-umumta'lim maktabida ham o'qitishning "4+2" shakli yo'lga qo'yildi. O'qitishning bu shakli endi yangi loyiha sifatida oliy ta'limga hamda maktab ta'lumi uchun qisqa fursatda joriy etilib, kelgusida yangi metodlar asosida boyitib boriladi. Bu loyiha **birinchidan**, ta'lism tizimida hamkorlik – nazariya bilan amaliyotni o'z vaqtida olib boorish imkoniyatini beradi. Bu metodni rivojlantirish uchun konsepsiya ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qitishning "4+2" shakli **ikkinchidan**, pedagog kadrlar tayyorlashda milliy mutaxassis o'qituvchilarni tayyorlashga xizmat qiladi. **Uchinchidan**, oliy ta'lism muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruva faoliyatini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta'lism dasturlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. **To'rtinchidan**, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi

bosqichga ko`tarib, bu esa talabalarga o`z oldiga qo`ygan shaxsiy dasturi bilan mustaqil ishlashi, maqsadli harakat va didaktik maqsadlarga erishish rejasini tuzishi, axborotlar manbalarini erkin izlab topishi, bilim olishning erkinligi mohiyatini tushunish imkoniyatini beradi. Talabaning pedagog mahoratini oshishi, pedagoglik hissini ruhan tuyishi, ayni haftaning ikki kunidagi maktab hayotida paydo bo`ladi. **Shuningdek**, talabalarning o`quv-bilim faolligini rag`batlantiradi, pedagogik ko`nikmalarni egallash bo`yicha bilim faoliyatini tashkil etishga yordam beradi. **Bundan tashqari**, talabalar uchun o`qitishning bu tizimi doimiy ravishda o`z-o`zini baholashni va yuqori sifatli va ritmik ishlarni rag`batlantirishni, maktab o`qituvchisi uchun esa uzlusizlikni ta`minlaydi. “4+2” loyihasi maktab jamoasiga katta ma`suliyatni yuklaydi. Bu to`g`risida keyingi kuzatishlarimiz natijasidan kelib chiqib, fikrlar xilma-xilligi bilan bayon qilamiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bunday ko`rinishdagi – “Ta`lim to`g`risida” gi qonunni qabul qilinishi ta`lim tizimini yanada takomillashtirish, yetuk kadrlarni tayyorlash va ta`lim sifatini oshirishda shubhasiz poydevor bo`lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan Resurslar

- [1]. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O`zbekiston NMIU-2021.
- [2]. O`zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi – “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni.
- [3]. O`zbekiston Respublikasining 2022 yil 21 iyundagi – “Pedagogik ta`lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta`lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risi”dagi qonuni.
- [4]. Andijon shahar, 11 umumta`lim maktabi amaliyoti natijalari.